



INNOVATIVE WORLD
Ilmiy tadqiqotlar markazi

ZAMONAVIY ILM-FAN VA TA'LIM: MUAMMO VA YECHIMLAR ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA



Google Scholar  zenodo  OpenAIRE



+998335668868

<https://innoworld.net>

2026



«INNOVATIVE WORLD» ILMIY TADQIQOTLARNI QO'LLAB-
QUVVATLASH MARKAZI

«ZAMONAVIY ILM-FAN VA TADQIQOTLAR: MUAMMO VA
YECHIMLAR» NOMLI 2026-YIL № 5-SONLI ILMIY,
MASOFAVIY, ONLAYN KONFERENSIYASI

ILMIY-ONLAYN KONFERENSIYA TO'PLAMI
СБОРНИК НАУЧНЫХ-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЙ
SCIENTIFIC-ONLINE CONFERENCE COLLECTION

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

www.innoworld.net

O'ZBEKISTON-2026

**BO'LG'USI TARBIYA FANI O'QITUVCHILARIDA LIDERLIK
SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING ZARURIYATI****Abduraximova Sokinabegim Dilmurod qizi**

Qo'qon davlat universiteti Pedagogika

mutaxassisligi 1-bosqich magistranti

sokinabegimabduraximova04@gmail.com**ANNOTATSIYA**

Bugungi kunda dolzarb bo'lgan pedagoglardagi liderlik xislatini rivojlantirish masalasi bo'yicha men o'z ishimda tarbiya fani o'qituvchilarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning pedagogik zaruriyati va ahamiyatini yoritganman. Kirish qismida globallashuv sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'рни va bu jarayonda o'qituvchining shaxsiy namuna hamda yetakchi sifatidagi roli tahlil qilinadi. Metodlar qismida talabalarning liderlik salohiyatini aniqlashga qaratilgan diagnostik metodikalar va interfaol treninglar majmuasidan foydalanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, pedagogik faoliyatda liderlik ko'nikmalarining mavjudligi dars samaradorligini oshirish bilan birga, o'quvchilarning ijtimoiy faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xulosa va muhokama qismida tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlash o'quv dasturlariga liderlik modullarini integratsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: liderlik sifatleri, tarbiya fani o'qituvchisi, pedagogik mahorat, ijtimoiy mas'uliyat, shaxsiy namuna, pedagogik diagnostika.

ABSTRACT

This article elucidates the pedagogical necessity and significance of developing leadership qualities in future Upbringing (Tarbiya) science teachers. Within the Introduction, the role of moral and ethical education in the context of globalization is analyzed, emphasizing the teacher's position as both a role model and a leader. The Methods section details the use of diagnostic methodologies and a suite of interactive training sessions designed to identify and enhance the leadership potential of students. The Results indicate that the presence of leadership skills in pedagogical activity not only increases lesson effectiveness but also exerts a positive influence on the social engagement of pupils. In the Discussion and conclusion, practical recommendations are provided for integrating leadership modules into the curricula of teacher training programs for the "Upbringing" discipline.

Keywords: leadership qualities, teacher of Upbringing science, pedagogical mastery, social responsibility, personal role model, pedagogical diagnostics.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonlari va shiddatli axborot almashinuvi davrida ta'lim tizimini tubdan isloh qilish dunyo davlatlari uchun strategik ustuvor yo'nalishga aylandi. Zamonaviy dunyoda ilm-fanning o'рни tobora ortib borishi bilan birga, ilmiy mavzularning nazariy va amaliy jihatlariga qo'yilayotgan talablar ham kun sayin yuqorilab bormoqda. Xususan, yosh avlodning dunyoqarashini kengaytirish, ularda yuksak axloqiy sifatlarni shakllantirish va erkin fikrlashga



o'rgatish jarayonida pedagoglarning roli faqatgina bilim beruvchi emas, balki jamiyatda yo'naltiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lmoqda.

Pedagog o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida beixtiyor bolaning tarbiyasi bilan ham shug'ullanib boradi. Chunki bu bizning sharqona mentalitetimizga singib ketgan muhim jarayon hisoblanadi. Ta'lim va tarbiya berishda o'qituvchi avvalo o'zi o'quvchilariga bu borada eng yaxshi na'muna bo'lishi lozim. Agar o'qituvchi o'quvchilarga hayotda zarur bo'lgan tarbiya va odob-axloq tushunchalarini o'rgatsa-yu, lekin o'zi bularga amal qilmasa, u o'qituvchi hech qachon o'quvchilaridan kutgan natijasiga erisholmaydi. Pedagogning shaxsiy namunasi ta'lim-tarbiya jarayonining asosi hisoblanadi. Zero, "so'z bilan o'rgatgandan ko'ra, amal bilan ko'rsatgan afzal" degan tamoyil barcha davr pedagogikasining oltin qoidasidir. Sharq pedagogikasida "komil inson" g'oyasi bevosita murabbiyning axloqi bilan bog'liq holda talqin qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

"Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi", degan chuqur ma'noli gapni ko'p takrorlaymiz. Lekin, afsuski, joylarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishda ana shu qoidaga amal qilinmayapti. Bu borada bog'cha, maktab, oliy ta'lim, mahalla tizimining har biri alohida ish olib borayotgani, ya'ni, o'zaro hamkorlik va uyg'unlikning yo'qligi ishimizning samarasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuning uchun ma'naviy-ma'rifiy ishlarning tizimini yaratish, unda har bir mas'ul idoraning va birgalikda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar belgilab qo'yish zarur"³.

Buyuk sharq mutafakkiri Abu Nasr Forobiyning "Fozil odamlar shahri" asarida rahbar va muallim o'zida barcha yaxshi sifatlarni jamlashi shartligi, ortidan boshqalarni ergashtira olishi muhimligi haqida yozadi. "Baxt-saodatga erishuv va tug'ma qobiliyatlarning rivojlanishi o'z-o'zicha bo'lavermaydi, balki bu masalada qandaydir bir muallim yoki rahbarga muhtojlik tug'iladi.

O'zidan boshqalarga rahbarlik qilish, ularni baxt-saodatga erishuv darajasiga ko'tarish ham har kimning qo'lidan kelavermaydi. Kimda bironi baxt-saodatga erishtirish, zarur bo'lgan ish-harakat kabilarga ruhlantira olish qobiliyati bo'lmasa va bu ish-harakatni bajara olishga qudratsiz bo'lsa, bunday odam sira ham rahbar bo'la olmaydi"⁴.

Yuqorida berilgan fikrlarga tayanib shuni ta'kidlab o'tish joizki, pedagogning ta'lim-tarbiya berish jarayonida o'quvchilarni o'z ortidan ergashtira olish, ularni ruhlantirish, qiziqishlariga qarab to'g'ri yo'naltirish, har tomonlama so'zlari va harakatlari orqali ta'sir o'tkaza olish qobiliyati mavjud bo'lishligi juda muhim omil hisoblanadi.

Rus pedagogikasining otasi hisoblangan Konstantin Ushinskiy – Pedagogning shaxsi yoshlar qalbiga ta'sir etuvchi shunday quyoshki, uni hech narsa bilan almashtirib bo'lmaydigan hissiyotga qiyoslaydi. Ushinskiyning fikricha, o'qituvchi faqat ma'lumot yetkazuvchi emas, balki o'quvchining irodasini

³ Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". - Toshkent: "O'zbekiston", 2021. b.285-286

⁴ Forobiy. A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016. b.290

shakllantiruvchi kuch ekanligini, tarbiya ishida hamma narsa tarbiyachining shaxsiga asoslanishi kerakligi, chunki tarbiya kuchi faqat inson shaxsiyatining tirik manбайдan oqib chiqishini e'tirof etadi. Hech qanday ustav va dasturlar, hech qanday o'quv dargohi tuzilishi, qanchalik mohirlik bilan tuzilmasin, tarbiya ishida shaxsiyatning o'rnini bosa olmasligini ta'kidlaydi⁵.

Darhaqiqat, zamonaviy ta'lim paradigmasida o'quvchi shaxsini shakllantirishning fundamental omili sifatida pedagogning intellektual salohiyati va ma'naviy-axloqiy qiyofasi e'tirof etiladi. Ta'lim muassasalarida o'tkazilgan sotsiometrik tadqiqotlar va pedagogik kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning muayyan fanga bo'lgan kognitiv qiziqishi ko'p jihatdan shu fandan dars beruvchi pedagogning shaxsiy xislatlari va kasbiy mahorati bilan bog'liqlik hosil qiladi.

Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim sharoitida pedagogning kasbiy kompetentligi uning shaxsiy imidji bilan uyg'unlashishi lozim. Olim N.A. Muslimovning tadqiqotlariga ko'ra, o'qituvchining o'z-o'zini rivojlantirishi va pedagogik texnikani egallashi o'quvchilarda fanga nisbatan ijobiy motivatsiyani shakllantiruvchi eng muhim omildir⁶.

NATIJARLAR

Olib borilgan nazariy tahlillar va zamonaviy ta'lim jarayonlarini kuzatish natijasida pedagogning shaxsiy namunasi hamda yetakchilik sifatlarining o'quvchi motivatsiyasiga ta'sirini ifodalovchi bir qator fundamental xulosalar olindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, pedagogning shaxsiy namunasi o'quvchilar uchun shunchaki tashqi model emas, balki ularning ichki psixologik xususiyatlarini shakllantiruvchi "ijtimoiy katalizator" vazifasini bajaradi. Abu Nasr Forobiy va K.Ushinskiy g'oyalarini bugungi kun ta'lim paradigmasi bilan qiyosiy tahlil qilish jarayonida aniqlandiki, pedagogning axloqiy qiyofasi va kasbiy kompetentligi o'rtasidagi uyg'unlik ta'lim samaradorligini ta'minlovchi birlamchi omildir. N.A. Muslimov yondashuvlaridan kelib chiqib o'tkazilgan tahlillar pedagogik imidjning kognitiv-intellektual, aksiologik va kommunikativ-yetakchilik komponentlarini integratsiyalash zarurligini tasdiqladi. Xususan, so'zi bilan amali bir bo'lgan, o'zida insoniy fazilatlarni mujassam etgan pedagog faoliyatida o'quvchilarning kognitiv qiziqishi va darsni o'zlashtirish ko'rsatkichi sezilarli darajada yuqori bo'lishi kuzatildi. Sotsiometrik kuzatuvlar natijasiga ko'ra, o'quvchilarning aksariyat qismi dars jarayonida fanning texnik murakkabligidan ko'ra, o'qituvchining shaxsiyatiga, uning adolat mezonlariga va muloqot uslubiga ko'proq tayanadi. Bu esa, zamonaviy ta'lim tizimida pedagogning shaxsiy namunasini passiv ko'rsatma emas, balki o'quvchi sub'ektivligini harakatga keltiruvchi faol mexanizm hamda "ustoz-shogird" tizimining asosi sifatida e'tirof etishga xizmat qiladi. Pedagogning ma'naviy-axloqiy yetukligi va liderlik qobiliyati o'quvchilarda nafaqat bilim, balki mustaqil fikrlash hamda ijtimoiy mas'uliyat ko'nikmalarini shakllantiruvchi strategik resurs hisoblanadi.

⁵ Ушинский. К.Д. Избранные педагогические сочинения. – Москва: Просвещение, 1968. с.205

⁶ Muslimov N.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013. b. 72



MUHOKAMA

Pedagogning "yo'naltiruvchi kuch" sifatidagi roli tarixiy pedagogik merosda ilgari surilgan "komil inson" va "fozil rahbar" konsepsiyalari bilan to'liq hamohangdir. Bu esa, o'qituvchi shaxsining axloqiy qiyofasi asrlar davomida ta'lim mazmunini belgilovchi o'zgarmas poydevor bo'lib kelayotganini tasdiqlaydi. Hech qanday texnologik taraqqiyot yoki raqamli resurslar pedagogning yoshlar qalbiga ko'rsatadigan shaxsiy-ma'naviy ta'sirini bosa olmaydi. Tarbiya kuchining faqat inson shaxsiyatining tirik manbaidan oqib chiqishi haqidagi nazariy qarashlar, ta'lim-tarbiya jarayonida fanga bo'lgan motivatsiyani shakllantiruvchi eng asosiy omil sifatida o'z isbotini topdi. Pedagogning o'z-o'zini rivojlantirishi va shaxsiy imidji uning kasbiy kompetentligi bilan uyg'unlashgan taqdirdagina, o'quvchilarda bilim olishga nisbatan barqaror qiziqish uyg'onadi. Shu bilan birga, muhokama qilinayotgan masalaning dolzarb jihati shundaki, zamonaviy axborot muhitida o'quvchilar pedagogning har bir xatti-harakatini, uning so'zi bilan amali o'rtasidagi mutanosiblikni chuqur tahlil va filtdan o'tkazadi. Agar o'qituvchi o'zi o'rgatayotgan qadriyatlarga kundalik hayotda amal qilmasa, bu ta'lim jarayonida ishonchsizlikni keltirib chiqaradi va kutilgan pedagogik natijaga erishish imkonini bermaydi. Binobarin, zamonaviy pedagog faqat bilim uzatuvchi mutaxassis emas, balki o'zining hayotiy pozitsiyasi orqali o'quvchining ma'naviy va intellektual qiyofasini loyihalashtiruvchi yetakchi shaxsdir. Tadqiqot yakunlari pedagogning shaxsiy namunasini ta'lim tizimining "oltin qoidasi" sifatida e'tirof etib, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda ularning liderlik va axloqiy sifatlarini rivojlantirishga strategik ahamiyat qaratish lozimligini ko'rsatmoqda.

XULOSA

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda yakuniy xulosa sifatida shuni aytamanki, ilmiy-nazariy tahlillar bo'lg'usi tarbiya fani o'qituvchilarida liderlik sifatlarini rivojlantirishning bugungi kundagi ijtimoiy-pedagogik zaruriyatini hamda uning strukturaviy-mazmuniy asoslarini belgilab beradi. Bo'lg'usi tarbiya fani o'qituvchilarida liderlik sifatlarini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati – bu ta'limning hayotiyligini ta'minlash demakdir. O'qituvchi o'zining liderlik aurasini shakllantirmas ekan, u kundan kunga aqlli, tezkor va serharakat bo'lib borayotgan yangi avlodning ma'naviy dunyosiga kirib bora olmaydi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida belgilangan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar, xususan, "Tarbiyada tanaffus bo'lmaydi" tamoyilining hayotga tatbiq etilishi bevosita tarbiya fani o'qituvchisining ijtimoiy faolligi va liderlik salohiyatiga bog'liq bo'lib, global tahdidlar kuchaygan sharoitda pedagog o'quvchi-yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar atrofida jipslashtira oladigan strategik sub'ekt sifatida namoyon bo'lishi lozim.



ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-sonli "Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida "Tarbiya" fanini bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". - Toshkent: "O'zbekiston", 2021.
3. Forobiy. A.N. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
4. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
5. Muslimov. N.A. Pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2013.
6. Muslimov N.A. va boshqalar. "Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi." – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2015.
7. G'aniyeva M.A. "Pedagogik diagnostika va korreksiya." – Toshkent: "Niso Poligraf", 2016.
8. Ушинский. К.Д. Избранные педагогические сочинения. – Москва: Просвещение, 1968.

